

O'ZBEKISTON YOSHLARINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGI*Xikmatillo Saidtorayev***Annotatsiya**

Mazkur maqolada O'zbekiston yoshlarining moliyaviy savodxonligi darajasi, uning ahamiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida moliyaviy bilimlarni oshirishning zamonaviy usullari, statistik ma'lumotlar asosida ularning moliyaviy xulq-atvori va kelajakdagi iqtisodiy barqarorlikka ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar Moliyaviy savodxonlik, yoshlar, budget, investitsiya, kredit, jamg'arma, iqtisodiy rivojlanish

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida moliyaviy savodxonlik har bir inson uchun zarur ko'nikmaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar uchun moliyaviy bilimlarga ega bo'lish kelajakda barqaror hayot kechirishning muhim omilidir. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsning o'z daromadlari va xarajatlarini to'g'ri boshqarish, jamg'arma qilish, investitsiya kiritish va moliyaviy risklarni baholash qobiliyatidir.

Asosiy qism**1. Moliyaviy savodxonlikning ahamiyati:**

Moliyaviy savodxonlik bugungi kunda har bir inson uchun zarur bo'lgan muhim hayotiy ko'nikmadir. U nafaqat daromad va xarajatlarni to'g'ri boshqarish, balki kelajakni rejalashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy bilimga ega bo'lgan inson o'z byudjetini nazorat qiladi, ortiqcha sarf-xarajatlardan qochadi va muntazam ravishda jamg'arma qilishni odat qiladi. Bu esa kutilmagan vaziyatlarda (masalan, ishsizlik yoki sog'liq bilan bog'liq muammolar) moliyaviy xavfsizlikni ta'minlaydi. Shuningdek, moliyaviy savodxonlik kredit olish, qarzlarni boshqarish va investitsiya qilishda to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Masalan, foiz stavkalarini tushunadigan va risklarni baholay oladigan inson noto'g'ri moliyaviy majburiyatlarga kirib qolmaydi. Bundan tashqari, moliyaviy bilimlar insonni turli firibgarliklardan himoya qiladi, chunki u shubhali takliflarni ajrata oladi. Yana bir muhim jihat shundaki, moliyaviy savodxonlik nafaqat shaxsiy farovonlikni oshiradi, balki jamiyat va mamlakat iqtisodiy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy jihatdan ongli fuqarolar ko'proq jamg'aradi, investitsiya qiladi va iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok

etadi. Shu sababli, moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish har bir davlat uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shaxsiy byudjet va jamg'armani to'g'ri shakllantirish moliyaviy barqarorlikka erishishning asosiy qadamlari hisoblanadi. Avvalo, inson o'z daromad manbalarini aniq belgilab olishi va barcha tushumlarni hisobga olishi kerak. Shundan so'ng xarajatlar toifalarga ajratiladi: majburiy (ijara, oziq-ovqat, transport) va ixtiyoriy (ko'ngilochar, ortiqcha xarajatlar). Bu usul ortiqcha sarf-xarajatlarni aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, kelajak uchun investitsiya qilish moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli farovonlikni ta'minlashning muhim usullaridan biridir. Investitsiya orqali inson o'z mablag'ini shunchaki saqlab qolmay, balki uni ko'paytirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Masalan, jamg'armani bank omonatlari, aksiyalar, obligatsiyalar yoki ko'chmas mulkka yo'naltirish orqali kelajakdagi ehtiyojlar uchun mustahkam moliyaviy poydevor yaratiladi. Ayniqsa, yoshlar uchun erta investitsiya qilish juda foydali, chunki vaqt o'tishi bilan foizlar va daromadlar yig'ilib, kapitalning sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Investitsiya insonni moliyaviy mustaqillikka olib boradi. To'g'ri tanlangan va rejalashtirilgan investitsiyalar nafaqat shaxsiy farovonlikni, balki iqtisodiy xavfsizlikni ham ta'minlaydi. Shu sababli, kelajak uchun investitsiya qilish moliyaviy savodxonlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yoshlar orasida moliyaviy savodxonlik past bo'lsa, bu nafaqat shaxsiy muammolarga, balki jamiyat miqyosida iqtisodiy muammolarga ham olib kelishi mumkin.

2. O'zbekiston yoshlarining moliyaviy savodxonligi holati:

OECD tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaga asoslangan tadqiqotlarga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda yoshlarning moliyaviy savodxonlik darajasi o'rtacha hisoblanadi. O'zbekistonda esa World Bank va Central Bank of Uzbekistan hamkorligida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra: aholining moliyaviy savodxonlik darajasi o'rtachadan biroz pastroq darajada yoshlar orasida bu ko'rsatkich kattalarga nisbatan biroz yuqoriroq, ammo yetarli emas. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda aholining faqat **20–25%** rasmiy yoki norasmiy tarzda jamg'arma qiladi. Yoshlarning aksariyati 2024-yil va unga yaqin davr statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda yoshlarning moliyaviy savodxonlik darajasi hali ham to'liq shakllanmagan va muammolar mavjud. Statistik tahlillarga qaraganda, mamlakatda umumiy moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lib, ayrim tadqiqotlarda aholining atigi 15% qismi yetarli moliyaviy bilimga ega ekanini qayd etilgan. Bu ko'rsatkich ayniqsa yoshlar orasida ham dolzarb muammo ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, 2025-yil tadqiqotlariga ko'ra ham yoshlarning 47% qismi umuman jamg'arma qila olmagan, bu esa ularning moliyaviy rejalashtirish ko'nikmalari sust ekanini bildiradi. Bundan tashqari, moliyaviy savodxonlikning eng asosiy komponentlaridan biri — **byudjet yuritish qobiliyati** hisoblanadi. Biroq, mavjud ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 18–30 yoshdagi aholining taxminan 60% i shaxsiy budjet yuritmaydi.

O'zbekiston yoshlarining katta qismi bu ko'nikmaga ega emas. Byudjet yuritish ko'nikmasining yetishmasligi moliyaviy beqarorlikka, ortiqcha qarzдорlik xavfiga hamda investitsiya imkoniyatlaridan foydalanmaslikka sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ushbu ko'nikmani rivojlantirish yoshlar moliyaviy savodxonligini oshirishda ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston yoshlari kredit shartlarini ham to'liq tushunmaydi. O'zbekiston yoshlarining 35% kredit olishdan oldin shartlarni to'liq o'rganmaydi. Ko'plab yoshlar kreditni faqat qisqa muddatli ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida ko'radi va uning umumiy qiymatini (ya'ni foizlar bilan birga qaytariladigan summa) hisoblamaydi. Natijada ortiqcha qarzдорlik, moliyaviy bosim va to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshira olmaslik kabi muammolar yuzaga keladi. Shung qaramasdan, ijobiy o'zgarishlar ham mavjud: so'nggi yillarda bank xizmatlaridan foydalanish va omonat qo'yish darajasi oshib, moliyaviy savodxonlik asta-sekin yaxshilanayotgani kuzatilmoqda. Bu O'zbekistonda olib borilayotgan kuchli islohotlar natijasi va yoshlarga moliyaviy savodxonlik tomonlama bilim berilayotgani so'ngi yillarda statistikaning ijobiy o'zgarishi dalili isbotdir.

3. Muommolar va to'siqlar:

Moliyaviy savodxonlikni oshirishda quyidagi muammolar mavjud eng asosiy muommolardan biri bu moliyaviy ta'limning yetarli emasligidir. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlikka oid fanlar cheklangan yoki umuman yo'q. Natijada yoshlar byudjet tuzish, jamg'arish, kredit olish yoki investitsiya qilish kabi muhim tushunchalarni yetarli darajada bilmaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, ko'plab yoshlar o'z daromadlarini rejalashtirmasdan sarflaydi, bu esa moliyaviy muammolarga olib keladi. Axborot yetishmasligi ham hozirgi kunda ko'plab yoshlarni moliyaviy savodxonligini egallashga to'sqinlik qilmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda moliyaga oid turli xil ma'lumotlar mavjud, biroq ularning hammasi ham ishonchli emas. Ko'pincha yoshlar noto'g'ri maslahatlar asosida qaror qabul qiladi. Masalan, tez boyish va'dasi berilgan firibgarlik sxemalariga aldanib qolish holatlari ham uchrab turadi. Agar biz ta'lim tizimiga moliyaviy savodxonlik darsligini kiritsak, yoshlar o'rtasida bu tushuncha keng ommalashadi va o'rganishga harakat qiladi. Darslarni ham faqat nazariy emas, balki amaliy mashg'ulotlar bilan boyitilib, o'quvchilarga real hayotiy misollar asosida o'rgatishimiz o'qituvchilarni kelgusi yillarda bu yo'nalishda maxsus tayyorlash va malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bundan tashqari, yoshlar uchun bepul kurslar va treninglar tashkil etish orqali bu bo'shliqni to'ldirish mumkin. Axborot yetishmasligi muammosiga keladigon bo'lsak yoshlar uchun ishonchli va sodda tilda tushuntirilgan moliyaviy platformalar, ijtimoiy tarmoqlarda maxsus sahifalar va bepul onlayn kurslarni rivojlantirish zarur. Shuningdek, davlat va banklar tomonidan muntazam ravishda seminar va treninglar tashkil etilishi yoshlarning to'g'ri ma'lumotga ega bo'lishiga yordam beradi. Natijada, bunday darsliklar va seminarlar orqali yoshlar o'rtasida moliyaviy savodxonlik

tushunchasini yanada osonroq va qulayroq tarzda keng yoyamiz va iqtisodiyotni har tomonlama barqarorlashtiramiz.

4. Moliyaviy savodxonlikni oshirish yo'llari

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda moliyaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish nafaqat shaxsiy farovonlikni ta'minlash, balki to'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun ham muhimdir. Shu sababli moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimli va kompleks tarzda amalga oshirilishi zarur. Birinchidan, moliyaviy savodxonlikni ta'lim tizimiga integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida byudjet yuritish, jamg'arish, kredit va investitsiya asoslari kabi mavzularni o'qitish yoshlarning moliyaviy ongini shakllantirishga yordam beradi. OECD tavsiyalariga ko'ra, moliyaviy ta'limni erta yoshdan boshlash eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bu orqali yoshlar kelajakda moliyaviy muammolarga duch kelish ehtimolini kamaytiradi. Undan tashqari, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. Bugungi kunda mobil ilovalar, onlayn kurslar va turli raqamli platformalar orqali moliyaviy bilimlarni oson va qulay tarzda o'zlashtirish mumkin. World Bank tadqiqotlari ham raqamli vositalarning moliyaviy savodxonlikni oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Ayniqsa, yoshlar orasida ushbu vositalardan foydalanish yuqori bo'lgani sababli ular samarali natija berishi mumkin. Qolaversa, oila va ijtimoiy muhitning roli ham beqiyosdir. Ko'plab moliyaviy odatlar aynan oilada shakllanadi. Ota-onalar tomonidan farzandlarga pulni to'g'ri boshqarish, tejash va rejalashtirish haqida beriladigan bilimlar ularning kelajakdagi moliyaviy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, jamiyatda moliyaviy madaniyatni shakllantirish ham muhim omillardan biridir. Shuningdek, yoshlar orasida axborot va media savodxonligini rivojlantirish zarur. Chunki noto'g'ri yoki tekshirilmagan moliyaviy ma'lumotlar noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ishonchli manbalardan foydalanish va kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, moliyaviy savodxonlikni oshirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u ta'lim, amaliyot, texnologiya va ijtimoiy muhitning o'zaro uyg'unligi orqali amalga oshiriladi. Aynan shu kompleks yondashuv yoshlarning moliyaviy jihatdan mustaqil va barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

Moliyaviy texnologiyalar (FinTech) roli

Hozirgi kunda mobil ilovalar orqali byudjet yuritish va xarajatlarni nazorat qilish imkoniyati yoshlar uchun juda qulaydir. Maxsus budgeting ilovalari foydalanuvchilarga o'z daromad va xarajatlarini kuzatish, tahlil qilish hamda moliyaviy maqsadlar qo'yish imkonini beradi. Natijada yoshlar pul oqimini yaxshiroq tushuna boshlaydi va ortiqcha xarajatlarning oldini olishga erishadi. Bundan tashqari, onlayn bank xizmatlari moliyaviy jarayonlarni soddalashtiradi va shaffoflikni oshiradi. Central Bank of Uzbekistan ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda raqamli to'lovlar va

mobil banking xizmatlaridan foydalanish so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, yoshlar ushbu texnologiyalarning eng faol foydalanuvchilari hisoblanadi. Bu esa ularning moliyaviy tizim bilan bevosita aloqada bo'lishiga yordam beradi. Biroq, moliyaviy texnologiyalardan foydalanishning o'zi yetarli emas. Muhimi — ularni ongli va to'g'ri ishlata olishdir. Aks holda, texnologiyalar noto'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilinishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu bois yoshlar orasida nafaqat texnologiyadan foydalanish, balki uning mohiyatini tushunish ko'nikmalarini ham rivojlantirish zarur.

Xulosa: O'zbekiston yoshlarining moliyaviy savodxonligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu nafaqat individual farovonlikni, balki mamlakat iqtisodiy barqarorligini ham ta'minlaydi. Yoshlarni moliyaviy jihatdan savodli qilish orqali kelajakda kuchli va barqaror iqtisodiy tizimni shakllantirish mumkin. Nafaqat iqtisodiyot sohasini yoshlar orasida targ'ib qilish, balki uni har tomonlama amalda ko'rsatish bu mamlakatimizning kelgusi yilda iqtisodiy barqarorlikni hamda undagi yutuqlarni ta'minlaydi. Qolaversa, davlatlar o'rtasidagi hozirgi kunda sodir bo'layotgan turli xil ichki muommolar va ziddiyatlarni oldini olish maqsadida tashkilotlar bilan hamkorlikda vaziyatni yengillashtirishga harakat qilmoqdamiz. Mamlakatimizda olib borilayotgan kuchli islohotlar va yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar orqali ham iqtisodiy ham ijtimoiy-siyosiy tomonlama mustahkam davlat sifatida shu muomolarni hal etmoqdamiz. Bundan tashqari, yoshlarning har sohada yangiliklar kiritishi va muommolarga yechim topishi uchun yaratilayotgan "Startup" loyihalari yoshlarni nafaqat qo'llab quvvatlash balki, moliyaviy tomonlama ham ta'minlab, ularni tanqidiy fikrlashi rivojlantirishiga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytadigon bo'lsak, yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirish bu mamlakatimizni kelgusi yilda rivojlangan davlat orasida bo'lishimizga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari
2. Jahon banki moliyaviy savodxonlik bo'yicha tadqiqotlari
3. OECD Financial Literacy Reports
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari
5. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha ilmiy maqolalar
6. Internet manbalari (uz, en saytlari)
7. Ta'lim vazirligi materiallari